

OCHIQ-BYUDJET AXBOROT PORTALI



OCHIQ-BYUDJET AXBOROT PORTALI

Bugun, Termiz shahar hokimligida Xalq deputatlari viloyat Kengashi kotibiyati mudiri Saydulla Berdishukurovich Abduraimov, viloyat Moliya boshqarmasi bo'lim boshlig'i Choriyev Ulug'bek Shavkatovich hamda shahardagi mutassaddi tashkilotlar rahbarlari ishtirokida "Ochiq Byudjet" portalining mazmun-mohiyati to'g'risida seminar bo'lib o'tdi.

Mazkur seminarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5072-son Qarori va "Ochiq Budjet" portalining mazmun-mohiyati hamda aholi tomonidan bildiriladigan takliflar va tavsiyalar berildi. Shuningdek seminar davomida byudjet xarajatlarini tartibga solish bo'yicha jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

- jamoatchilik fikrini shakllantirish uchun shaharlar va shaharlar byudjetlarining mablag'lari hisobidan moliyalashtirish uchun taqdim etiladigan tadbirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish;
- fuqarolarning murojaatlarini, shu jumladan byudjet qonunchiligining buzilishi

faktlarini xabardor qilish va byudjet jarayonini takomillashtirish yuzasidan takliflar
kiritish imkoniyatlarini ta'sirlanish to'g'risida to'liq tushunchalar berib o'tildi.

